

## 38 - RAQAMLI HUJJAT (PODSHO ROSSIIYASI MUSTAMLAKASI DAVRIDA RAVOT VOLOSTI)

**Ochilov Akrom**

*Toshkent davlat Yuridik universiteti qoshidagi Akademik litsey tarix fani o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Калит сўзлар:**

Raboti Malik, Ravot volosti, Tanob, Ustobek o'g'li Boturboy, Mullo Davlat o'g'li Mullo Rahmatullo, 38 inchi raqamda.

### Аннотация

Ushbu maqolada hozirda Jizzax viloyati Zarbdor tumanida istiqomat qilayotgan, lekin, ota-bobosi Sharof Rashidov tumani Ravot qishlog'ida istiqomat qilgan, Ma'marasul Hayitovlar xonadoniga tegishli, milodiy 1891 yilga oid bo'lgan hujjat orqali Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida; hududda quyi boshqaruv usuli qanday bo'lganligi, sud-huquq tizimi, Ravot volostining joylashuv o'rni, aholisining mashg'uloti, qolaversa o'sha vaqtda istiqomat qilgan insonlar haqida ma'lumot berildi

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Tarixni o'rganish Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov: "Odomzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tugilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi"<sup>1</sup>, - deb takidlaganlariday, avvalo tug'ulib o'sgan joyidan boshlanadi. Darhaqiqat, yurtimizdagi har bir go'sha tarixi, umumiy tariximizning ajralmas qismidir. Shu jihatdan bugungi Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani tarkibidagi Ravot qishlog'i o'tmishini o'rganish, tariximizni yanada boyitadi.

Ravot haqidagi ma'lumotlar yozma manabalarda, dastlab arab sayyohlari asarlarida uchraydi.<sup>2</sup> Qolaversa, Amir Temur va Temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi asarlarda (Raboti Malik nomi ostida),<sup>3</sup> Shayboniylar davri haqida ma'lumot beruvchi "Abdullanoma"<sup>4</sup> asarida<sup>4</sup> ham keltirib o'tiladi.

Ravot qal'asining Xonliklar davrida, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi chegarasidagi hudud sifatidagi siyosiy ahamiyati ortadi. Shu sababli Qo'qon va Buxoro tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlarda tez-tez tilga olinadi.

Rossiya imperiyasining 1866 yildagi yurishi voqealari yoritilgan mahalliy<sup>5</sup> va rus manabalaridan<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 7 tom . 75 b.

<sup>2</sup> Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2011 y. 68 b.

<sup>3</sup> Sharfuddin Ali Yazdiy .Zafarnoma. T.: "Sharq", 1997. 55 b. (Nashrga tayyorlovchilar: Ashraf Ahmad, Xaydarbek Bobobekov).

<sup>4</sup> Hofiz Tanish al – Buxoriy. Abdullanoma.S. Mirzayev tarjimasini. Nashrga tayyorlovchi Bo'ribov Ahmedov T.: "Sharq". 1999 y.1- jild, 307-310 - betlar.

<sup>5</sup> Muxammad Yusuf Bayoniy .Sharai Xorazmshohiy. "G'afur G'ulom' N. T., - 1994 y. 24 b.

anglash mumkinki, Ravot qal'asi Zomindan so'ng Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan ishg'ol etiladi.

Hududda 1917 yilgacha Podsho Rossiyasi hukumronligi davom etadi. E'tiborlisi Ravotning Podsho Rossiyasi takibidagi davri haqida ma'lumot beruvchi ma'lumotlar asosan siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot haqida ma'lumotlar kam uchraydi. To'g'ri, O'zbekiston Milliy Davlat Arxivi 19 va boshqa fonlaridan (1870-1917), O'zMDA Jizzax viloyat arxivi 47- fondidan (1916-1917) hudud haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Lekin, to'liq rus tilidagi bu hujjatlar Podsho Rossiyasi o'lkada amalga oshirgan siyosati va aholining ijtimoiy, iqtisodiy hayotini to'la ochib berish uchun yetarli emas. Xo'sh shu o'rinda qaysi manbalardan foydalanish masalaga oydinlik kiritadi?

Ma'lumki, O'lka Rossiya imperiyasi tomonidan egallanganidan so'ng, bosib olingan hududlarda 1867 yilda tashkil etilgan Turkiston General Gubernatorligi tarkibidagi viloyatlarda eski xonlikdan qolgan boshqaruv tizimi bekor qilinadi va yangisiga almashtirildi. Lekin, Podsho hukumati vakillari quyi boshqaruv organlarini o'z holicha qoldiradi. Albatta, bu o'rinli edi. Chunonchi, ular hali hududni to'liq bilmas va dastlabki vaqtda aholining ichki ishlariga keskin aralashishi salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin edi. Natijada, 1867-1886 yillarda qabul qilib borilgan nizomlar asosida o'lkada ikki xil; umumsaltanat rus sudlari va xalq sudlari, ya'ni shariat asosida ish ko'ruvchi qozi sudlari faoliyat ko'rsatadi. Bu o'rinda sud bo'yicha tashkil etilgan maxsus kamissiyalar rus sudlariga shikoyatlar kam tushganligi haqida tez-tez hisobot berib turganlar. Ular bunga aholining savodsizligini sabab sifatida ko'rsatishgan. Aslida esa bunga asosiy sabab mahalliy aholi orasida rus sudlariga ishonchsizlikning kuchli bo'lganligi bo'lgan. Shu sababli aholi ko'proq xalq sudlariga murojat qilgan.<sup>7</sup> Masalaning ushbu tomoni ham Podsho Rossiyasi davrida aholining ijtimoiy hayotini yoritishda ushbu turdagi hujjatlarning ahamiyati kattaligini ko'rsatadi.

Dala tadqiqotlari natijasida hozirda Jizzax viloyati Zarbdor tumanida istiqomat qiluvchi, Ma'marasul Hayitovlar xonadonida huddi shu davrga doir, shu turdagi bir qancha hujjatlar mavjudligi aniqlandi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan hujjat ushbu oilasiga tegishli bo'lib, bu oila o'sha vaqtda bugungi Sharof Rashidov tumani Ravot qishlog'ida istiqomat qilgan.

Milodiy 1891 yilga oid bo'lgan hujjat orqali Rossiya Imperiyasi mustamlakachiligi davrida; hududda quyi boshqaruv usuli qanday bo'lganligi, sud-huquq tizimi, bugungi Ravot qishlog'ining o'sha vaqtdagi joylashuv o'rni, aholining mashg'uloti, qolaversa o'sha vaqtda istiqomat qilgan insonlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

Hujjat yer-oldi sotdi jarayoniga doir bo'lib, och sariq rangdagi Qo'qon qog'oziga, fors tilida, nastaliq xatida, qora bo'yoqda yozilgan. Matn yozuvlari yaxshi saqlangan bo'lsada, qozi muxri bunday ahvolda emas.

Hujjatda yozilishicha sotilayotgan chorbog' 0,75 tanob bo'lib, to'rt tomondan chegarasi aniq keltirilib o'tilgan. e'tiborlisi shimol va sharq tomonlaridir. Chunonchi chorbog' sharq tomondan Usta Muhammadning o'gli Rahimboyning yeri bilan, shimol tomondan esa tog'oldi tepaliklari bilan chegaradosh bo'lgan.

Bugungi kunda Ravot qishlog'i mahalliy aholi tomonidan ikki qismga yuqoriovul va pastkiovulga ajratiladi va aholining asosiy qismi (pastkiovul) tekislikda istiqomat qiladi. Lekin, qishloqning joylashuv o'rni xonliklar va Podsho Rossiyasi davrida bugungi holatidan farqli bo'lgan. Ma'lumki, xonliklar davri haqida ma'lumot beruvchi Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix"<sup>8</sup>,

<sup>6</sup> Xaydarov X. Usmonov Q. Jizzax tarixi. T.: "O'qituvchi", 2009. 100 b./ qarang – "Русский вестник" 1868 г. № 140

<sup>7</sup> Sodiqov H., Shamsutdinov R., va mualliflar jamoasi. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: "Sharq", 209 b.

<sup>8</sup> Muhammad Hakimxon To'ra . Muntahab at – tavorix. (Xo'qand va Buxoro tarixi, sayohat vaxotirALar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: "Yangi asr avlodi", 2010. 363-b.

Xudoyorxonozoda qalamiga mansub “Anjum at-tavorix”<sup>9</sup> da Ravotda mustahkam qal’a mavjud ekanligi haqida ma’lumot keltirib o’tiladi. Bu qal’a joylashuv o’rnini arxeologik manbalar tog’ tepaliklari orasidagi soylikda ekanligini tasdiqlamaqda.<sup>10</sup> Hujjatdagi sotilayotgan chorbog’ning shimol tomondagi chegarasi bu ma’lumotlarni yanada aniqlashtiradi.

Ma’lumki, Ravot qishlog’i aholining chorvachilik bilan shug’ullanishi uchun juda qulay joylashgan. Shu sababli aholining mashg’uloti asosan chorvachilik bo’lgan. Chunonchi Muhammad Hakimxon To’raning “Muntaxab at-tavorix”da Umarxonning Jizzaxga yurishi vaqtida, Ravot qal’asini egallashi jarayoni haqida bergan ma’lumotlari ham buni tasdiqlaydi: “Hali hech bir podshoh davrida bunaqasi ro’y bermagan edi. Farg’ona askarlari elning barcha molu-boyliklarini talab, qo’yin-ko’njlarini to’ldirishdi. Sal quvlaganlar esa elning podalarini ham qo’lga kiritib, har biri ming qo’y va yuz otdan ortig’iga ega bo’ldilar”.<sup>11</sup>

Qolaversa Ravot aholi savdo-sotiq bilan ham shug’ullangan. Bunga hududning savdo yo’lida joylashganligi sabab bo’lgan. Chunonchi, Buxorodan Qo’qonga boradigan 615 verstni<sup>12</sup> tashkil etuvchi savdo yo’lining asosiy yo’nalishi – Samarqand, Yangiqo’rg’on, Jizzax, Zomin, O’ratepa, Xo’jand, Maxram, Beshariq va Qo’qon bo’ylab o’tgan.<sup>13</sup> Bu karvon yo’li Jizzaxga kelgach O’ratepagacha ikki yo’nalishda harakat qilgan. Birinchisi Jizzax, **Ravot**, Pishag’or, Zomin, Yom, Savod, O’ratepa orqali o’tgan bo’lsa, ikkinchisi Jizzax, **Ravot**, Yom, O’ratepa orqali o’tgan.<sup>14</sup> Ushbu savdo yo’li Qo’qon xonligi va Buxoro amirligi o’rtasidagi savdoda emas, balki, Qashqar, Eron, Afg’oniston, Xiva xonligi, Hindiston bilan amalga oshiriladigan savdoda ahamiyati katta bo’lgan.

Hujjatda tilga olingan sotilayotgan suvli chorbog’ aholi orasida bog’dorchilik sohasining ham yaxshi yo’lga qo’yilganligini ko’rsatadi. Chunonchi Molguzar tog’ tizmasining tarkibiga kiruvchi Yetimtog’ va Kattatog’ning sharqiy yon bag’irlaridan boshlanuvchi Teshiksoy, Qaynarariqsoy, Ko’rpsay, Teshikdarasoy va Uvabsoylarning qo’shilishidan xosil bo’lgan 14 kmlik Rovotsoy suv manbaidan<sup>15</sup> mahalliy aholi nafaqat kundalik hayot uchun, balki, bog’dorchilik qilish maqsadida ham keng foydalanadi.

Hujjatda yozilishicha: “xijriy 1309 yil jumadul avval oyida Ustobek o’g’li Boturboy o’zining mulkini barcha huquqlari bilan Mullo Davlat o’g’li Mullo Rahmatulloga 258 tanga badaliga sotadi. Bu oldi-sotdi qozixonada shariat qonun-qoidalari bo’yicha rasmiylashtiriladi. Unga ko’ra oluvchi mazkur vaqtdan boshlab, o’n oy muddat bilan belgilangan pulni berishi bilan chorbog’ga to’la egalik qilish huquqini qo’lga kiritadi”.

Ma’lumki, Turkiston general gubernatorlogi tashkil etilganidan so’ng, u viloyat, tuman (uyezd), 1867 yilgi “Nizom” loyihasiga asosan ovul va volostlarga bo’linadi. Shu asosda Samarqand viloyati, Jizzax uyezdi tarkibida Ravot volosti tashkil etiladi. Buni arxiv xujjatlari ham tasdiqlaydi.<sup>16</sup>

Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan boshqa hududlar singari Ravot volostida ham barcha sohada bo’lgani singari yer-suv va sud-huquq tizimida o’zgarishlar amalga oshiriladi.

<sup>9</sup> Xudoyorxonozoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari). T.: “Fan va texnologiya”, 2014. Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov.230 b.

<sup>10</sup> Suyunov S.S.Shimoliy g’arbiy Ustrushonaning sug’orilish tarixi. Tarix fanlari nomzodl ilmiy darajasi uchun tayyorlangan disertatsiya. Samarqand. , 1999 y. 26 b.

<sup>11</sup> Muhammad Hakimxon To’ra . Muntahab at – tavorix. (Xo’qand va Buxoro tarixi, sayohat vaxotirALar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 363-b./ qarang - Xudoyorxonozoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari). T.: “Fan va texnologiya”, 2014. Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov.230 b.

<sup>12</sup> Uzunlik o’lchov birligi. 1 verst – 1,066 km.

<sup>13</sup> Safarov T.T. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O’rta Osiyo savdo yo’llari.tarix.fan.nom.diss. T.: 2009 y.

<sup>14</sup> Bobobekov Q.N. Qo’qon tarixi. T.: “Fan”, 1996. 117 b.

<sup>15</sup> Suyunov S.S.Shimoliy g’arbiy Ustrushonaning sug’orilish tarixi. Tarix fanlari nomzodl ilmiy darajasi uchun tayyorlangan disertatsiya. Samarqand. , 1999 y. 26 b.

<sup>16</sup> O’zMDA Jizzax viloyat arxivi. fond- 47. Ro’yxat- 1, y.j- 4, varaq -258, 512.

Chunonchi Podsho Rossiyasi tomonidan chiqarilgan 1867 yilgi “Nizom” loyihasi bo‘yicha o‘lkada tub joy aholining diniy e‘tiqodiga mos ravishda amal qilgan shariat qoidalariga asoslangan qozilik sudlarini butunlay tugatmasdan saqlab qolinadi.

Shu tariqa aholi kundalik masalalar, yer oldi-sotdi jarayonlari, oilaviy mojarolar, kishilar o‘rtasidagi janjal va kelishmovchiliklar bo‘yicha mahalliy qozi sudlariga murojat etishni davom ettiradi. Hujjatdagi ma‘lumotlardan anglash mumkinki, Jizzax uyezdi tarkibidagi Ravot volostida ham boshqaruv yangi tizimga o‘tgan bo‘lsada, quyi boshqaruv, sud tizimi eski holatida qoldiriladi. Ya‘ni sotuvchi va oluvchi tomon hujjatlarni qozixonada shariat qonun-qoidalarini asosida, fors tilida, guvohlar oldida rasmiylashtiradi. Ushbu hujjatda ham Mirzo Abdullox, Tuliboy, Bobo Abdulloh, Abboy, Eshboy, Usto O‘ljaboy, Dulanboy, Mullo Avaz, Samandarboy kabi mahalliy aholidan bo‘lgan guvohlar ismi qayd etiladi.

E‘tiborli jihati hujjatda, matndan tashqarida, o‘ng burchakda hujjat rasmiylashtirilgan vaqt alohida milodiy yil hisobida keltiriladi. Chunonchi, hujjatda milodiy 1891 yil 11 dekabr sanasi ko‘rsatilgan. E‘tiborlisi hujjatni rasmiylashtirgan qozixona hujjatni ro‘yxatini ham bergan. Hujjatda 1891 yil 11 dekabr sanasidan so‘ng, “38 inchi raqamda” jumlasini keladi. Xo‘sh hujjatda milodiy va tartib raqamini berish nima uchun kerak edi?

Ma‘lumki, garchi mahalliy sudlar saqlab qolingani bo‘lsada, Podsho hukumati vakillari milliy va diniy tartiblarga asoslangan sudlar faoliyatini cheklab, ular ustidan kuchli nazorat o‘rnatishga qattiq intiladi.

Demak, mahalliy qozi sudlarining faoliyati qattiq nazorat qilib borilgan. Ya‘ni, ular har yillik ish faoliyati bo‘yicha, doimiy hisobot berib borganlar. Shu sababli hujjatlarda rasmiylashtirilgan vaqt milodiy vaqt hisobi bilan birga tartib raqami ham keltirilgan.

Hujjatda sodir bo‘lgan bunday o‘zgarish, ya‘ni hujjatlarning aniq vaqt bilan raqamlanishi, tadqiqotchilarga bir yilda qozi sudlari qancha ish ko‘rib chiqqanligini aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu hujjatning ham rasmiylashtirilgan vaqti deyarli yilning ohirgi oyida amalga oshirilganligini inobatga olsak, Ravot volosti qozixonasida bir yilda qirqaqa yaqin huddi shu masaladagi ishlar ko‘rib chiqilganligi aniqlashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Podsho Rossiyasi mustamlakasi davri tarixi haqida hududlar kesimida, izlanishlar olib borishda nafqat rus hukumati boshqaruv idora hujjatlari, balki, quyi boshqaruvga doir hujjatlarning ahamiyati katta va ular bilan tanishib chiqish lozim.